

O'ZBEKISTONDA TABIIY GAZDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13777223>

Davletov Zafar Quvondiq o'g'li

Sergeli tuman kasb-hunar maktabi

Annotatsiya

Bugungi kunda insoniyat geometrik progressiya bilan ko'payayotgan bir paytda, tabiiy resurs, yoqilg'i va energiya resurslri tanqisligi muammosi va uning yechimi dolzARB bo'lib qolmoqda. Maqolada jahon mamlakatlari, xususan, O'zbekistonda ham gazdan to'g'ri foydalanish, kelajak avlodga yetkazish muammolari va ular yechimiga doir ayrim fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar

yoqilg'i resurslari, metan, propan, neft-gaz havzalari, gazli, mineral o'g'itlar, polimerlar, gaz quvurlari.

Abstract

Today, in a place where humanity is increasing with geometric progression, the problem of shortage of natural resources, speed and energy resources and its production remains. In the article, there are some thoughts on the problems of correct supply of gas to the countries of the world and Uzbekistan, supply to the next generation and their solutions.

Key words

speed resources, methane, propane, oil and gas reservoirs, Gas, mineral fertilizers, polymers, gas.

Kirish

Gaz-juda arzon, shu bilan birga havoni eng kam ifloslantiruvchi yoqilg'inинг bir turi. Tabiiy gazlar yer ostidan qazib olinuvchi, asosan metanlar qatoriga kiruvchi uglevodorodli gazlardan tashkil topgandir. Uning tarkibida metan, etan, propan, butan, pentan va geksanlar, ularning birikmalari kiradi. Gazning asosiy turi yer bag'rining 200-7000 metr chuqurlikdagi g'ovak jinslarida bo'ladijan yonuvchi tabiiy gazlardan iborat Eng qizig'i, yer qa`ridan qazib olinadigan ushbu ne'matning qanday vujudga kelgani to'g'risida dunyo olimlari haligacha bahslashadi.

Neft va gaz konlarining organik yo'l bilan paydo bo,,lishi to'g'risida yangi gipotezalardan birini esa rus geologi Gubkin Ivan Mixaylovich (1871-1939) yaratgan edi. Gaz ko'pincha neft bilan aralashgan holda relyefning cho'kkani, botiq joylarida cho'kindi jinslar orasida hosil bo'ladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida 5 ta neft-gazli (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Hisor, Surxondaryo va Farg'ona) va 4 ta neft va gazga istiqbolli (Xorazm, O'rtaSirdaryo, Markaziy-Qizilqum va Zarafshon) mintaqalari ajratilgan hamda ularda 270 ta neft va gaz konlari ochilgan.

Tadqiqot maqsadi. Ilmiy ishdan ko'zlangan maqsad, giogen nazariyasidan oqilona foydalanish, tabiiy gaz paleozoy davrining so'ngida nobud b'lgan o'simlik va hayvon organizmlaridan, bakteriyalar, yuqori bosim va harorat ta'sirida hosil bo'lgan muammolarni bartaraf etish haqida izlanishlar olib borishga harakat qilindi. Neft va gaz konlarining organik yo'l bilan paydo bo'lishi to'g'risida yangi gipotezalardan birini va uning ushbu sohada tutgan o'rni haqida ilmiy-amaliy tavsiyalar berib o'tildi.

Foydalanilgan materiallar va usullar. Tadqiqotlar umum qabul qilingan entomologik kuzatuvlar asosida olib borildi. Tabiiy gazdan foydalanish to'g'risida "Ekologiya va ekologik ta'lim muammolari" 249 amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali "Ekologiya va ekologik ta'lim muammolari" 250 amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali va Alimqulov N.R., Safarova N.I., Amanbayeva Z.A., Mo,,minov D.G geografiya o'quv qo'llanmalari hamda usullaridan foydalanildi.

Tajriba natijalari va muhokamalar. O'zbekiston viloyatlar o'lkashunoslik atlaslari Shuningdek, neft va gaz konlari Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlaridagi Odamtosh, Gumbuloq, Pachkamar, Qizilbayroq, Omanota nomli joylarda yuqori yura davri karbonat tog' jinslari antiklinal burmalarida ham ochilgan. Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarining tekislik qismida bir nechta neft va gaz konlari Muborak, Oqjar, Saritosh, Jarqoq, Qoravulbozor va boshqalar) ochilgan bo'lib, ular yura va bo'r chokindi tog' jinslari bilan bog"liqdir. Gazning juda katta zaxirasi Buxoro viloyatidagi Gazli konida 50-yillardayoq ochilgan edi. U juda katta hajmda Rossiyaning markaziy shaharlari va Uralga quvurlar orqali olib ketilgani natijasida hozirda tugab bormoqda. Bundan tashqari, gaz konlari Ustyurt platosidagi Shohpaxta, Quanish nomli joylarda yura davri cho"kindi tog' jinslari qatlamlari orasida ochilgan.

Gazdan nafaqt yoqilg'i sifatida, balki sanoatning ko'plab tarmoqlarida ham xomashyo o"rnida foydalaniladi. Dastlab gaz sanoati XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya kabi davlatlarda shaharlarni yoritishda toshko'mirdan olingan gazdan foydalanilgan va shundan buyon

rivojlanib kelmoqda. Geologlarning hisob-kitoblariga ko'ra dunyodagi gazning geologik zaxirasi 150-170 trillion m³ ga yetadi. O'zbekistonda 1932-yildan boshlab tabiiy (neft bilan chiqadigan) gaz qazib olina boshlandi, lekin chiqarilgan gazning miqdori oz edi (*yiliga 0,7-3 mln. m³ ni tashkil qilgan*). 1960-yillarga kelib respublikamizda qator gaz konlari ochildi va bu sohada tub burilish yasaldi. Gaz sanoati yoqilg'i sanoatining eng yosh va jadal rivojlanayotgan sohasidir. Bu sanoat tabiiy gazni qazib olish, tashish, saqlash va tarqatish bilan shug'ullanadi. Gazni qazib olish neft qazib olishga qaraganda ikki barobar arzon va ko'mir qazib olishdan 10-15 marta arzonroq

Ma'lumotlarga qaraganda, 2021-yilda O'zbekistonda 53,8 mlrd. kub metr gaz qazib chiqarilgan. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda tasdiqlangan tabiiy gaz zaxiralari 1 trln 866,9 mlrd kub metrga baholanmoqda. Amaldagi qazib chiqarish hajmlarida ushbu zaxiralar kamida 34 yilga yetadi. Ammo zaxiralar oshishini hisobga olgan holda kelajakda bu raqamlar kattaroq bo'lishi mumkin.

Tabiiy gaz yoqilg'i sifatida bir qancha afzalliklarga ega. Boshqa yoqilg'i turlariga nisbatan tabiiy gazni qazib olish osonligi va arzonligi, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning qulayligi, issiqlik berish quvvatining yuqoriligi, transportabelligi, neft va ko'mirga nisbatan ekologik jihatdan tozaligi kabi holatlar gaz konlarini izlash va ishga tushirish ishlariga katta ahamiyat qaratilishiga sababchi bo'ldi. Natijada jahon energiya xomashyo turlari ichida tabiiy gaz qazib olish doimo o'suvchanlik xususiyatini kasb etib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda gazni suyultirilgan holda jahon bozoriga chiqarila boshlaganligi ham bu sohaga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Bundan tashqari, tabiiy gaz yoqilg'i sifatida uy-joy xo'jaligida ham ishlataladi. Gaz kimyo sanoati uchun ham xomashyo bo'lib xizmat qiladi. Undan mineral o'g'itlar, polimerlar ishlab chiqarishda keng foydalaniladi

Xulosा: Tabiyatning bebaho ne'matlaridan biri bo'lgan gaz va neftdan oqilona foydalanish shuningdak uylarni isitishda gazdan noto'g"ri foydalanish oqibatida gazi (CO) dan zaharlanish, buning natijasida aholi orasida o'lim holatlari tobora ortib borishining oldini olish tabiiy gazdan zaharlanish holatini kamaytirish, shuningdek tabiiy gaz zahiralarini uzoq muddatli foydalanishga erishish, kelajak avlodga ham yetkazish uchun avvalo aholi orasida gazdan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish kerak. Gaz qazib chiqarish jarayonida kompleks qazib olish yoki yuqori texnologik jarayonlarni qo'llash, konlardan to'liq foydalanish bo'shagan havzalarda rekultivatsiya tadbirlarini amalga oshirish, gazdan xom ashyo sifatida foydalanish, korxonalarda chiqindisiz ishlab chiqarish yoki chiqindilarni qayta ishlash moslamalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Zero,

ona xalqimiz ta'kidlaganidek tabiiy resurslar bizlar uchun ajdodlardan qolgan meros emas, balki avlodlardan olingan qarzdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimqulov N.R., Safarova N.I., Amanbayeva Z.A., Mo,,minov D.G,.geografiya o,,quv qo „llanma toshkent info capital group 2018 242 bet
2. Baratov P. O“zbekiston tabiiy geografiyasi. O“quv qo“llanma.-T.: O“qituvchi, 1996, 264 b.
3. Mamatqulov M. Egamov B.Yu. Geologiya va geomorfologiya. Darslik. - T.: “VneshlnvestProra”, 2019. 208 b.
4. O“rmonov M., Turdaliyeva M., Jakbarov O. O“ZBEKISTON NEFT-GAZ SANOATI VA ZAXIRALARI.“Muqobil energiya manbalaridan foydalanishning joriy holati va istiqbollari” mavzusida Respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to“plami.Namangan 2020-yil 22-23-aprel 449-451-betlar.
5. . www.wikipedia.org
6. Gazeta.uz